


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi
№ 983
2019 yil « ____ »



GEOGRAFIYADA STATISTIKA
FANINING ISHCHI O'QUV
DASTURI
(Tanlov fan)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lif sohasi: 140000 – Tabiiy fanlar
Ta'lif yo'nalishi: 5140600 – Geografiya

Ma'ruba: 24 soat
Amaliy mashg'ulot: 34 soat
Mustaqil ta'lif: 50 soat

Samarqand- 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi, namunaviy o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq
ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Badalov O.B. - SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasи assistanti.


Taqrizchilar:

Usmonov M.R. – SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasи dotsenti, g.f.n.

Qodirov M.A. – SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasи dotsenti, g.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasining 2019 yil __
dagi №__ son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashiga muhokama
qilish uchun tavsiya etilgan.


Kafedra mudiri:



dots. Qodirov M.A.

Fanning ishchi o'quv dasturi Geografiya va ekologiya fakulteti kengashida muhokama
etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil __ avgustdagi №__-sonli bayonnomma)

Fakultet uslubiy kengashi raisi:



dots. T.J. Jumaboev


Fakultet dekani



dots. L.Z.Ibragimov

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i



dots. B.Aliqulov

Kirish

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarda umumgeografik qonuniyatlar asosida tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalarning tub mohiyatiga etish, talabalarga geografiyada statistikaning ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy asoslarini tushintirish va o‘rgatish, ushbu fanga oid hududiy qonuniyatlarni, hodisa va voqealarning sabab oqibatini aniqlash, baholash va ularni bashorat qilish haqida bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari - fanning asosini tashkil etuvchi bosh tushunchalarning mohiyatini ochib berish, fanning tadqiqot uslubiyoti, uslublari va asosiy tamoyillari hamda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning hududiy qonuniyatlarini o‘rganish, fanning o‘rganish ob’ekti bo‘lgan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy majmualarining vujudga kelishi, rivojlanishi, joylashish qonuniyatları, o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, izohlab berish, voqeа va hodisalarni tarixan o‘zgarishda, kompleks holda o‘zaro aloqadorlikda qarash, turli mintaqa va hududlarning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga iqtisodiy-geografik baho berish, proqnoz qilish malakalariga ega bo‘lishdan iborat.

Fan bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmaga qo‘yiladigan talablar

«Geografiyada statistika» fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:

- fanning ob’ekti va predmeti, tarkibiy qismlari, asosiy termin va tushunchalari, tadqiqot usullarini yaxshi o‘zlashtirishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy voqeа-xodisalarni vujudga kelishi va rivojlanishining xududiy qonuniyatlarini ***bilishi kerak***;
- talaba statistik usullar va ular yordamida ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarni tashkil etish va bajarishga doir ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak***;
- talaba turli katta-kichiklikdagi xududiy sotsial – iqtisodiy tizimlar va ularning elementlarini rivojlanishini statistik tahlil qilish va kelajak istiqbollari bo‘yicha xulosalar chiqara olish ***malakalariga ega bo‘lishi kerak***.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

“Geografiyada statistika” fani talabalarga 7-8 semestrlarda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish uchun o‘quv rejasida rejallashtirilgan matematik va tabiiy-ilmiy (oliy matematika, informatika va axborot texnologiyalar, statistika, ekologiya asoslari), umumkasbiy(umumi er bilimi, jahon geografiyasi, O‘zbekiston geografiyasi, tabiatdan foydalanimishning geografik asoslari, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari) fanlaridan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Ushbu fan yuqori malakali geograflar tayyorlashda va ularni ilmiy-tadqiqot institutlariga, oliy, o‘rta maxsus, umumta’lim tizimi muassasalariga, ishlab chiqarish va boshqaruv tashkilotlariga mutaxassis qilib etkazib berishda zarur bo‘lgan bilimlar beradi. U asosiy mutaxassislik fani hisoblanib, malakali geograflar tayyorlash tizimining ajralmas bo‘g‘inidir.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Geografiyada statistika” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, kartografik va statistik ma’lumotlardan foydalaniladi. Ma’ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

SHaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtiroychilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo,

kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lism texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsnинг jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lism oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limi ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsnинг o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limi tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lism beruvchi va ta'lism oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lism. Ta'lism mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lism oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qaramaqarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lism, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rghanishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalarini.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blitz-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. "Inson geografiyasi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Pover point" dasturidan foydalananiladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalananiladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Fan bo'yicha soatlar taqsimoti

| Nº | Ma'ruzalar nomi | Jami soat | Maruza | Amaliy mashg'ulot | Mustaqil talim |
|----|--|-----------|--------|-------------------|----------------|
| 1. | Kirish. Statistika fanining predmeti va vazifalari | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 2. | Statistik kuzatish uslubiyoti | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 3. | Statistik ko'rsatkichlar | 6 | 2 | 2 | 2 |

| | | | | | |
|-----|---|-----|----|----|----|
| 4. | Statistik ma'lumotlarni taqdim etish usullari | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 5. | Statistik ko'rsatkichlar | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 6. | Statistik ma'lumotlarni taqdim etish usullari | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 7. | Statistik to'plam va taqsimot qatorlari | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 8. | Dinamika qatorlari | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 9. | Iqtisodiy indekslar | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 10. | Jadvallar va grafiklar | 8 | 2 | 2 | 4 |
| 11. | Statistik tasniflash va guruhlash | 8 | 2 | 2 | 4 |
| 12. | Dinamika qatorlari | 8 | 2 | 2 | 4 |
| 13. | Mehnat resurslari statistikasi | 6 | | 2 | 4 |
| 14. | Aholi turmush sharoiti statistikasi | 6 | | 2 | 4 |
| 15. | Aholi migratsiyasi statistikasi | 6 | | 2 | 4 |
| 16. | Aholi bashorati statistikasi | 6 | | 2 | 4 |
| 17. | Tug'ilish jaryonini statistik o'rganish | 6 | | 2 | 4 |
| | Jami | 108 | 24 | 34 | 50 |

Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

Geografiyada statistika fanining tadqiqot ob'ekti va predmeti. Fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqlari. Aholi turmushi haqidagi ma'lumotlarga Amaliy ehtiyoj va statistikaning paydo bo'lishi. Statistika so'zining lug'aviy ma'nosi va qo'llanilish yo'llari. Davlatshunoslik va hozirgi zamon statistikasi. Statistika ilm-fan tarmog'i, amaliy faoliyat soxasi, bilim yo'nalishi, moddiy dunyoni bilish quroli ekanligi. Tasviriy va analitik statistika. Ommaviy xodisa va uning muhim belgilari. Statistik tafakkur va ehtimollar. Tasodifiyat va zaruriyat. Tasodifiy xodisa va uning muhim belgilari. Katta sonlar qonuni va statistik qonuniyat. Statistika uslubiyoti. Statistik tadqiqot va uning bosqichlari. Tasviriy statistika bosqichi.

Statistik kuzatish uslubiyoti

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi va xalqaro statistika. Iqtisodiy xodisalarini bilish jarayoni va uning asosiy bosqichlari. Bozor sharoitida statistikaning roli va funksiyalari, markazlashgan rejali xo'jalik sharoitidagi statistika vazifalaridan tub farqlari. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi, uning tuzilishi, funksiyalari va xuquqlari. Ushbu qo'mitaning mahalliy tashkilotlari, ularning tuzilishi va vazifalari. Statistik kuzatish, uning mohiyati va asosiy talab va qoidalari. Kuzatish ob'ekti va sub'ekti. Statistik kuzatishni tashkil etish tamoyillari. Milliy va xalqaro standartlar. Senzlar. Statistik kuzatishni tayyorlash uslubiyoti. Kuzatish maqsadi va vazifalari. Kuzatish ob'ekti, uni aniqlovchi belgilar. Kuzatish birligi. Kuzatish dastri va uni tuzish masalalari. Hisob birligi. Statistik formulyar va yo'riqnomalar. Kuzatish joyi va vaqt. Kuzatish fursati (payti) va muddati. Statistik kuzatish turlari: uzlukli va uzlusiz kuzatish, fursatli (davriy) va biryo'la kuzatish, yoppasiga va qisman kuzatish. Statistik kuzatishning tashkiliy shakllari: statistik hisobot, biznes-tekshirishlar, ro'yxatlar va boshqa maxsus tashkil etilgan kuzatishlar. Statistik hisobot turlari va ularni tuzish hamda taqdim etish tartibi. Maxsus tashkil etilgan tanlanma kuzatish va biznes-tekshirishlar – bozor sharoitida statistik kuzatishning asosiy turlari ekanligi.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat*.

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Statistik ko'rsatkichlar

Statistik ko'rsatkichlarni mazmuni va ahamiyati. Ommaviy xodisa me'yori va sifat – miqdor aniqligi. Statistik ko'rsatkich turlari va tasnifi. Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar tizimi. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar. Mutlaq ko'rsatkich turlari. Nisbi yko'rsatkichlar, ularning mazmuni va ifodalash shakllari. Birinchi va ikkinchi tartiblitaqqosla natijalari. O'sish suratlari va ularni jadallashtirish ko'rsatkichlari. CHegaraviy moyillik va elastiklik ko'rsatkichlari. To'plam

tuzilishi va undagi siljishlarni tariflovchi nisbiy ko'rsatkichlar. Dinamika nisbiy ko'rsatkichlari. Xududlararo va ob'ektlararo taqqoslash nisbiy miqdorlari. Intensivlik nisbiy ko'rsatkichlari. Reja va shartnomni bajarish nisbiy ko'rsatkichlari. Nisbiy ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro bog'lanishlar. Iqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning unsurlari. Milliy mahsulot va daromadlarning doiraviy aylanmasi – makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimining asosi. Tovar va xizmatlar oqimlari va ularning iqtisodiy doiraviy aylanmada namoyon bo'lish shakllari. Daromadlar va harajatlar oqimlari, ularning doiraviy aylanmada yuzaga chiqish shakllari. Makroiqtisodiy statistika ko'rsatkilari tizimi.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Statistik ma'lumotlarni taqdim etish usullari.

Statistik ko'rsatkichlarni taqdim etishning asosiy usullari: matnda so'z bilan bayon qilish, jadval va grafiklar shaklida tasvirlash. Matnda taqdim etishning kamchiliklari. Jadval - statistikaning asosiy so'z turkumi ekanligi. Uning mohiyati va tarkibiy unsurlari. Jadval egasi va kesimi. Jadval maketi va tuzilishi, uning turlari. Jadalni tuzish tartib va qoidalari. Statistik ma'lumotlarni grafiklarda tasvirlash, uning afzalliklari. Grafiklarning asosiy unsurlari: mashstab, shkala va koordinat tizimi. Ularni tuzish qoidalari. Grafik turlari: diagrammalar, haritogrammalar va haritadiogrammalar. Diagramma turlari. Siniq chiziqli diagrammalar va ularda tasvirlanadigan iqtisodiy jarayonlar. Ustunli va lentasimon diagrammalar, ularning funksiyalari. Aholi jinsi-yoshi piramidasи. Sektorli (yoysimon) diagrammalar, ularda tasvirlanadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. Reja va shartnomani bajarish diagrammassi. Taqsimotlar histogrammasi va poligoni. Burama (sipral simon) diagrammalar va ularni qo'llash joylari. Ma'lumotlarni tekislik shakllarida tasvirlash.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Statistik to'plam va taqsimot qatorlari.

Statistik to'plam tushunchasining mazmun, uning asosiy belgilari: mazmunan jinsdoshlik va o'zaro bog'lanish. To'plam birligi, uning mohiyati va asosiy belgilari. Variatsion belgi - to'plam birligining asosiy xossasi. Miqdoriy va atributiv belgilari. Statistik qatorlar, ularning turlari: dinamika qatorlari va taqsimot qatorlari. Taqsimot qatorlarining turlari. Tartiblangan taqsimot qatorlari. Variatsion qatorning asosiy unsurlari: variantalar va variantlar soni. Ayrim variantalarni takrorlanish tezligi va yalpi hajmi. Variatsion qator turlari: diskret va oraliqli qatorlar. Oraliqli qatorlarning variantalar soni va kengligini aniqlash usullari. Taqsimot zichligi. Taqsimot histogrammasi va poligoni. Kumulyativ taqsimot. Variatsion qatorlarni tahlil qilishning yo'naliishlari va tasviriy (tasnifiy) parametrlari (ko'rsatkichlari) haqida umumiy tushuncha.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Dinamika qatorlari.

Dinamika qatorlari, bozor iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilishda ularning roli va ahamiyati. Dinamika qatorlarining turlari. Ularni tahlil qilish ko'rsatkichlari. +ator o'rtacha darajasi va o'rtacha dinamikasi suratini aniqlash usullari. Dinamika qatorlarida asriy tendensiylar, mavsumiy va konyunkturaviy tebranishlar, ularni o'rganish zaruriyati. Umumiy tendensiyalarni aniqlash usullari: davrlarni uzaytirish, sirg'ananchiq o'rtacha darajalar va trendlarni aniqlash yo'llari. Dinamika qatorlarda avtokorrelyasiya. Vaqt lagini aniqlash va investitsiyalarni iqtisodiy baholashda uni hisobga olish tartibi. Dinamika qatorlari orasidagi bog'lanishlarni tahlil

qilishda korrelyatsion-regression usuldan foydalanish yo'llari. Dinamika qatori darajalarini interpolyasiyalash va ekstropolyasiyalash. Statistik modellashtirish va istiqbollashtirish. Dinamika qatorlarida konyunkturaviy tebranishlarni o'rganish yo'llari. Mavsumiylikni baholash usullari.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat*.

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Iqtisodiy indekslar.

Indekslarning iqtisodiy va statistik tabiat. Indeks turlari: umumiy, guruhiy va yakka indekslar. O'rtacha vaznsiz indekslar. Dyuto va Karli indekslari. Vaznsiz geometrik va garmonik o'rtacha indekslar. Vaznli o'rtacha indekslar. Agregat indekslar, ularning sintetik va analitik funksiyalari. Indekslashtirilayotgan belgi va vazn (o'lchov) - belgi. Laspeyres va Paashe indekslari. Joriy va zaminiy vaznli indekslar tizimi, ularning xususiyatlari. Indekslar tizimini tuzish mezonlari: iqtisodiy mohiyati jihatidan asoslash va yagona qiymatli echim olish. Fisher va Edjours indekslari. Indekslarning xossalari va test nazariyasi. Guruhiy indekslar tizimi, o'zgaruvchan va o'zgarmas tarkibli indekslar. Tarkibiy siljish indekslarini tuzish yo'llari. Indeks usulidan iqtisodiy hodisalar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilishda foydalanish yo'llari. Bozor iqtisodiyoti amaliyotida qo'llanadigan asosiy indekslar. Sanoat mahsulotlari umumiy indekslari. YAIM deflyatori va real hajmi indeksi. Iste'mol baholari va taklif baholari indekslarini tuzish tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat*.

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Statistik ko'rsatkichlar bosqichlari.

Statistik ko'rsatkichlar mazmuni va ahamiyati. Ommaviy hodisa me'yori va sifat - miqdor aniqligi. Statisik ko'rsatkich turlari va tasnifi. Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar tizimi. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar. Mutlaq ko'rsatkich turlari. Statistik taqqoslash, uning mohiyati va turlari. Nisbiy ko'rsatkichlar, ularning mazmuni va ifodalash shakllari. Birinchi va ikkinchi tartibili taqqoslash natijalari. O'sish sur'atlari va ularni jadallashtirish ko'rsatkichlari. CHegaraviy moyillik va elastiklik ko'rsatkichlari. To'plam tuzilishi va undagi siljishlarni ta'riflovchi nisbiy ko'rsatkichlar. Dinamika nisbiy ko'rsatkichlari. Hududlararo va ob'ektlararo taqqoslash nisbiy miqdorlari. Intensivlik nisbiy ko'rsatkichlari. Reja va shartnomani bajarish nisbiy ko'rsatkichlari. Nisbiy ko'rsatkichlarni tuzish qoidalari. Nisbiy ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'lanishlar. Iqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning unsurlari. Milliy mahsulot va daromadlarning doiraviy aylanmasi - makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimining asosi. Tovar va xizmatlar oqimlari va ularning iqtisodiy doiraviy aylanmada namoyon bo'lish shakllari. Daromadlar va harajatlar oqimlari, ularning doiraviy aylanmada yuzaga chiqish shakllari. Makroiqtisodiy statistika ko'rsatkichlari tizimi. Mikroiqtisodiy statistika ko'rsatkichlari. Xalqaro iqtisodiy tahlil amaliyotida qo'llaniladigan standart statistik ko'rsatkichlar.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat*.

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Jadvallar va grafiklar.

Statistik ko'rsatkichlarni taqdim etishning asosiy usullari: matnda so'z bilan bayon qilish, jadval va grafiklar shaklida tasvirlash. Matnda taqdim etishning kamchiliklari. Jadval - statistikaning asosiy so'z turkumi ekanligi. Uning mohiyati va tarkibiy unsurlari. Jadval egasi va kesimi. Jadval maketi va tuzilishi, uning turlari. Jadalni tuzish tartib va qoidalari. Statistik ma'lumotlarni grafiklarda tasvirlash, uning afzalliklari. Grafiklarning asosiy unsurlari: mashstab, shkala va koordinat tizimi. Ularni tuzish qoidalari. Grafik turlari: diagrammalar, haritogrammalar va

haritadiogrammalar. Diagramma turlari. Siniq chiziqli diagrammalar va ularda tasvirlanadigan iqtisodiy jarayonlar. Ustunli va lentasimon diagrammalar, ularning funksiyalari. Aholi jinsi-yoshi piramidasi. Sektorli (yoysimon) diagrammalar, ularda tasvirlanadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. Reja va shartnomani bajarish diagrammasi. Taqsimotlar gistogrammasi va poligoni. Burama (sipral simon) diagrammalar va ularni qo'llash joylari. Ma'lumotlarni tekislik shakllarida tasvirlash. Kvadrat, kub va doira shakllaridagi diagrammalarni tuzish va qo'llash yo'llari. Tasvirli (figurali) diagrammalar. Haritagrammalar va haritadiagrammalar hamda markaziydiagrammalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Statistik tasniflash va guruhash.

Ommaviy hodisa va ob'ektlarni tasniflash, uning mohiyati va ahamiyati. Iqtisodiy tasniflagichlar, ularning turlari va tuzilishi. Ierarxik tasniflagichlarni asosiy unsurlari va funksiyalari. Fasetli tasniflagich. Bozor iqtisodiyotini o'rganishda qo'llanadigan asosiy tasniflar va tasniflagichlar. Iqtisodiy faoliyat turlarini tarmoqiy va sektorli xalqaro va milliy standart tasniflagichlari, ularning tuzilishi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan asosiy aktivlar tasniflagichi. Bandlik holatiga qarab hodimlarning xalqaro tasniflagichi. Kasblarni ularning tipiga qarab xalqaro tasniflash. Statistik guruhash, uning mazmuni, ahamiyati va vazifalari. Guruhash qoidalari va ilmiy tamoyillari. Guruhash belgisini ixtisoslashtirish. Guruhalr sonini aniqlash tartibi. Guruhalr oralig'ining kengligini (chegarasini) aniqlash usullari. Guruhash turlari. Tipologik guruhash, sotsial-iqtisodiy tip tushunchasining mohiyati. Analitik guruhash va uni dispersion tahlil bilan birgalikda qo'llash zaruriyati. Tuzilmaviy guruhash. Tuzilmalarni baholash usullari. Oddiy va murkkab guruhash. Birlamchi va ikkilamchi guruhash. Ikkilamchi guruhashni tuzish usullari. Ko'p o'lchovli guruhash, uning turlari va tuzish usullari. Ko'p o'lchovli o'rtacha miqdor asosida guruhash. Klaster - tahlil usuli yordamida ko'p o'lchovli guruhashni tuzish asoslari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Dinamika qatorlari.

Dinamika qatorlari, bozor iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilishda ularning roli va ahamiyati. Dinamika qatorlarining turlari. Ularni tahlil qilish ko'rsatkichlari. Kator o'rtacha darajasi va o'rtacha dinamikasi suratini aniqlash usullari. Dinamika qatorlarida asriy tendensiyalar, mavsumiy va konyunkturaviy tebranishlar, ularni o'rganish zaruriyati. Umumiy tendensiyalarni aniqlash usullari: davrlarni uzaytirish, sirg'anchiq o'rtacha darajalar va trendlarni aniqlash yo'llari. Dinamika qatorlarida avtokorrelyasiya. Vaqt lagini aniqlash va investitsiyalarni iqtisodiy baholashda uni hisobga olish tartibi. Dinamika qatorlari orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilishda korrelyatsion-regression usuldan foydalanish yo'llari. Dinamika qatori darajalarini interpolasiyalash va ekstropolyasiyalash. Statistik modellashtirish va istiqbollashtirish. Dinamika qatorlarida konyunkturaviy tebranishlarni o'rganish yo'llari. Mavsumiylikni baholash usullari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz, loyixali, nilufar gul, menuy, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1;A2;A3;A4;A5;A6;Q1;Q2;Q3;Q4;Q5;

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Statistika fanining predmeti va vazifalari
2. Statistik kuzatish
3. Statistik ko'rsatkichlar

4. Statistik ma'lumotlarni taqdim etish usullari
5. Jadvallar va grafiklar
6. Statistik to'plam va taqsimot qatorlari
7. Tanlama kuzatish va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati
8. Ijtimoiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni statistik o'rganish
9. Dinamika qatorlari
10. Iqtisodiy indekslar
11. Jadval va grafiklarni tuzish
12. Demografik statistika
13. Mehnat resurslari statistikasi
14. Aholi turmush sharoiti statistikasi
15. Aholi migratsiyasi statistikasi
16. Aholi bashorati statistikasi
17. Tug'ilish jaryonini statistik o'rganish

Izoh: Fan uchun ishchi dastur tuzish jarayonida mazkur mavzular ro'yxatidan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soat hajmiga mos holda mavzular tanlab olinadi.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalar mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilanidigan o'quv mashg'ulotlarida ishtiroy etish.

Mustaqil ishlar uchun quyidagi mavzularni chuqur o'rganish tavsiya etiladi:

Mustaqil ishlar uchun quyidagi mavzularni chuqur o'rganish tavsiya etiladi:

1. Statistika fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Statistik kuzatish usullari
3. Statistik ko'rsatikich turlari
4. Statistik ma'lumotlarni taqdim etish usullari
5. Jadvallar va grafiklar tuzish usullari
6. Statistik to'plam va taqsimot qatorlari
7. Tanlama kuzatish va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati
8. Ijtimoiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni statistik o'rganish
9. Dinamika qatorlari
10. Iqtisodiy indekslar
11. Jadval va grafiklarni tuzish
12. Demografik statistika
13. Mehnat resurslari statistikasi
14. Aholi turmush sharoiti statistikasi
15. Aholi migratsiyasi statistikasi
16. Aholi bashorati statistikasi
17. Tug'ilish, o'lim jaryonini statistik o'rganish

Izoh: Fan ishchi dasturini shakllantirish jarayonida mazkur mashg'ulot uchun ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan soatlar hajmiga mos mavzular ro'yxati shakllantiriladi.

“Geografiyada statistika” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

“Geografiyada statistika” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi. Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin; oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiyoq soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi; yakuniy nazorat (YAN) – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. YAKUNIY nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “YOZMA ish” shaklida o‘tkaziladi. ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o‘tkaziladi. Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o‘tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi. “Geografiyada statistika” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidiagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: YA.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

| Ball | Baxo | Talabalarning bilim darajasi |
|--------|------------|---|
| 86-100 | A’lo | Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 71-85 | YAxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 55-70 | Qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik. |

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi. Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: O, bu erda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiyoq o‘quv yuklamasi (soatlarda); O‘- fan bo‘yicha lashtirish darajasi (ballarda). Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiyoq ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam

ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi. Joriy JN va oraliq ON turlari bo‘yicha 55bal va undan yuqori balni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi. Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

ON va YAN turlari kalendor tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. YAN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi. JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda JN va ON turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘limgan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi. Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to‘playdigan ballarning mezonlari

| | Ko‘rsatkichlar | ON ballari | |
|---|---|------------|------|
| | | maks | 1-ON |
| 1 | Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to‘liqligi. | 15 | 0-15 |
| 2 | Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirish. | 10 | 0-10 |
| 3 | Og‘zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo‘yicha | 10 | 0-10 |
| | Jami ON ballari | 35 | 0-35 |

Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning mezonlari

| | Ko‘rsatkichlar | JN ballari | | |
|---|--|------------|------|------|
| | | maks | 1-JN | 2-JN |
| 1 | Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlarining yuritilishi va holati | 15 | 0-7 | 0-8 |
| 2 | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi. | 10 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | YOzma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar | 10 | 0-5 | 0-5 |
| | Jami JN ballari | 35 | 0-17 | 0-18 |

YAkuniy nazoratda “YOzma ish”larni baholash mezoni

YAkuniy nazorat “YOzma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan. Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar

bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-3 ball oralig‘ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin. YOzma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

Dasturning informatsion – metodik ta’minoti

Fanni o‘zlashtirishda dasturda ko‘rsatilgan asosiy va qo‘srimcha darslik va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek uslubiy qo‘llanmalar, xorijiy adabiyotlar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari, statistik to‘plamlardan foydalanish nazarda tutiladi. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda mos ravishdagi ta’limning ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiya usullarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar:

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

1. Karimov I.A. Azod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8.T., «O‘zbekiston», 2000.
2. Abdullaev YO. «Statistikaning umumiy nazariyasi», T., «O‘qituvchi», 1993
3. Abdullaev YO. «Mikroqtisodiy statistika» O‘quv qo‘llanma. T., «Mehnat». 1998.
4. G‘ulomov. S.S., Ubaydullaeva R., Ahmedova E., Mustaqil O‘zbekiston. T. Mehnat. 2001.
5. Statistika. Uchebnie posobe. M. INFRA-M, 2001 g.
6. Sidenko A.V. Mejdunarodnaya statistika. Uchebnik. M., «Finansy i statistika», 2001 g.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

1. Statistika. M., 1998.
2. E.A. Akramov, N.M. Soatov «Statistika asoslari», 1979
3. Tojieva Z. «Statistikaning umumiy nazariyasi» Ma’ruzalar matni
4. vvv. Ziyo net.
5. O‘lmasov A., SHarifxo‘jaev M., «Iqtisodiyot nazariyasi» Darslik. T., «Mehnat», 1995 .

Internet saytlari:

1. www. stat.uz
2. www. Samstat.uz

